

YEVROPA MIGRATSIYA SIYOSATINING INSON HUQUQLARI BILAN MUVOFIQLIGI: TAHLIL VA TAKLIFLAR

Marat Sharipov Ilyosbay o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Davlat boshqaruvi yo'nalishi magistratura talabasi

maratsharipov31@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yevropa Ittifoqining migratsiya siyosati inson huquqlari tamoyillari bilan qanchalik muvofiqligi tahlil qilinadi. Migratsion oqimlar, xavfsizlik masalalari va transmilliy tahdidlar sharoitida inson huquqlarini to'liq ta'minlash muammolari ko'rib chiqiladi. Maqolada Yevropa Inson huquqlari sudi amaliyoti, YeI qonunchilik hujjatlari, shuningdek, mavjud institutsional mexanizmlar asosida tahlil o'tkazilib, ularning inson huquqlari bilan ziddiyatli jihatlari aniqlanadi. Yakunda muvozanatga erishish bo'yicha konseptual va amaliy takliflar bildirilgan.

Kalit so'zlar: migratsiya siyosati, Yevropa Ittifoqi, inson huquqlari, xavfsizlik, huquqiy muvofiqlik, YeI institutsional tizimi.

Аннотация: В статье рассматривается степень соответствия миграционной политики Европейского Союза принципам защиты прав человека. В условиях усиления миграционных потоков и транснациональных угроз исследуются трудности соблюдения прав человека. На основе практики Европейского суда по правам человека, правовых актов ЕС и институциональных механизмов проводится критический анализ. В завершении предложены концептуальные и практические рекомендации по достижению баланса между безопасностью и правами человека.

Ключевые слова: миграционная политика, Европейский Союз, права человека, безопасность, правовая совместимость, институциональная структура ЕС.

Abstract: This article analyzes the compatibility of the European Union's migration policy with the principles of human rights protection. It examines the challenges of ensuring full respect for human rights in the context of increasing migration flows and transnational threats. The analysis is based on the case law of the European Court of Human Rights, EU legal instruments, and institutional mechanisms, revealing contradictions with fundamental human rights. The article concludes with conceptual and practical recommendations for achieving a sustainable balance between security and human rights.

Keywords: migration policy, European Union, human rights, security, legal compatibility, EU institutional framework.

KIRISH

Yevropa Ittifoqi (YeI) migratsiya siyosati hozirgi global geosiyosiy sharoitda inson huquqlari va xavfsizlik o'rtasidagi muvozanatni saqlash borasida sinovdan o'tmoqda. 2015–2016 yillardagi migratsiya inqirozi, Afg'oniston va Suriya kabi mojaroli hududlardan kelayotgan qochqinlar oqimi, shuningdek, ichki siyosiy qutblanish ushbu siyosatni yanada murakkablashtirmoqda. YeI davlatlari o'z hududiy yaxlitligini saqlab qolish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va milliy xavfsizlikni mustahkamlashga intilar ekan, ko'plab holatlarda inson huquqlari buzilishi holatlari yuzaga kelmoqda.

YeI migratsiya siyosati, bir tomondan, Dublin reglamenti, Qaytarish direktivasi, Shengen kodeksi kabi huquqiy asoslarga tayanadi; ikkinchi tomondan esa, uning amaliyotida YeIning asosiy qadriyatlariga – inson qadr-qimmat, erkinlik, demokratiya, tenglik va inson huquqlariga bo'lgan sodiqlik – zid keluvchi qarorlar ham uchramoqda. Xususan, migratsiya siyosatining siyosiyashtirilishi, populistik diskurslar kuchayishi, migrantlarning kollektiv deportatsiyasi va boshpanadan ommaviy ravishda voz kechish holatlari Yevropa Inson huquqlari sudi (ECHR) tomonidan keskin tanqidga uchramoqda.

Bundan tashqari, YeI darajasida migratsiya boshqaruvi institutsional jihatdan murakkab tizimda tashkil etilgan bo'lib, Frontex, EASO, Europol kabi agentliklar, shuningdek, ichki ishlar bo'yicha Bosh direktorlik, YeI Kengashi va Yevrokomissiya o'rtasidagi vakolatlar taqsimoti amaliyotda ziddiyatlarni yuzaga keltirmoqda. Milliy suverenitet va supranatsional qarorlar o'rtasidagi tanglik esa migratsiya siyosatini markazlashgan holda amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda.

Mazkur maqola aynan shu nuqtayi nazardan YeI migratsiya siyosatining inson huquqlari bilan muvofiqligini baholashga qaratilgan. Bunda inson huquqlari xalqaro normalari, Yevropa Inson huquqlari konvensiyasi (ECHR) va Yevropa Inson huquqlari sudi pretsedent qarorlari asosida tahlil olib boriladi. Maqolada shuningdek, mavjud ziddiyatli jihatlar, siyosiy xavflar va institutsional zaifliklar aniqlanadi hamda ushbu siyosatni inson huquqlari bilan uyg'unlashtirishga doir konseptual va amaliy tavsiyalar ilgari suriladi.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolada Yevropa Ittifoqining migratsiya siyosati inson huquqlari tamoyillari bilan qanchalik muvofiq kelishini aniqlash uchun bir necha o'zaro to'ldiruvchi metodologik yondashuvlar qo'llanildi. Tadqiqot yondashuvlari nafaqat normativ-huquqiy asoslarni tahlil qilish, balki institutsional va amaliy mexanizmlarni baholashga ham yo'naltirilgan. Bu esa mavzuni ko'p qatlamli tahlil qilish imkonini berdi.

Birinchi metod sifatida qiyosiy-huquqiy tahlil tanlandi. YeI migratsiya siyosatini tartibga soluvchi asosiy hujjatlar – Dublin reglamenti, Qaytarish (Repatriatsiya) direktivasi, Shengen kodeksi, Asosiy huquqlar xartiyasi va YeIning tashqi chegaralarni muhofaza qilish to‘g‘risidagi me‘yoriy hujjatlari tahlil qilinib, ularning inson huquqlari konvensiyalari bilan qanchalik mos kelishi baholandi. Ayniqsa, Yevropa Inson huquqlari konvensiyasining 3, 5, 8 va 13-moddalari bilan zid keluvchi holatlar aniqlashga e‘tibor qaratildi.

Ikkinchi metod sifatida pretsedent huquqiy yondashuv, ya‘ni Yevropa Inson huquqlari sudi (ECHR) tomonidan ko‘rilgan muhim ishlar asosida keys-stadi tahlillari olib borildi. Jumladan, *M.S.S. v. Belgium and Greece*, *Hirsi Jamaa v. Italy*, *N.D. and N.T. v. Spain*, *S.K. v. Hungary* kabi qarorlar asosida YeI davlatlarining migratsion siyosatida inson huquqlari buzilishi qanday yuzaga kelgani aniqlandi. Ushbu sud qarorlarida ayniqsa kollektiv deportatsiya, asoslanmagan ushlab turish, boshpana olish imkonining cheklanishi kabi holatlar yoritilgan.

Uchinchi metod sifatida institutsional tahlil qo‘llanildi. Bu yondashuv orqali YeI darajasida migratsiya boshqaruviga mas‘ul bo‘lgan asosiy tashkilotlar – Frontex, EASO (hozirgi nomi EUAA), Europol va Yevropa Komissiyasining Ichki ishlar bo‘yicha bosh boshqarmasi – ning funksiyalari, vakolat doirasi, amaliy siyosatdagi roli tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mazkur institutlar orasida vakolatlar to‘qnashuvi, axborot almashinuvi muammolari va inson huquqlariga oid masalalarda koordinatsiyalashgan mexanizmlar yetarli emas.

Shuningdek, siyosiy hujjatlar tahlili ham metodologik yondashuvlardan biri sifatida xizmat qildi. Yevropa Kengashining migratsiya bo‘yicha 2021–2027 yillardagi strategik dasturlari, YeI Kengashi deklaratsiyalari, va Yevrokomissiya hisobotlari o‘rganildi. Ushbu hujjatlarda xavfsizlik va davlat manfaatlari inson huquqlaridan ustun qo‘yilayotgan vaziyatlar mavjudligi qayd etildi.

Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlar – BMTning Qochqinlar ishlari bo‘yicha boshqarmasi (UNHCR), Amnesty International, Human Rights Watch va European Council on Refugees and Exiles (ECRE) tomonidan e‘lon qilingan hisobotlar asosida amaliy monitoring ma‘lumotlari tahlil qilindi. Bu yondashuv YeI migratsiya siyosatining real hayotdagi oqibatlarini aniqlashda muhim manba bo‘ldi.

Oxir-oqibat, tanlangan metodlar YeI migratsiya siyosatining inson huquqlari bilan uyg‘unlashmagan jihatlarini aniqlash, mavjud institutsional ziddiyatlarni ochib berish va siyosiy-huquqiy takliflar ishlab chiqish uchun ishonchli asos yaratdi.

NATIJALAR

Tadqiqot davomida Yevropa Ittifoqi (YeI) migratsiya siyosatining inson huquqlari bilan muvofiqligini aniqlash maqsadida bir nechta normativ-huquqiy va institutsional jihatlar o‘rganildi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, YeI migratsiya siyosatining

zamonaviy modeli murakkab va ko'p bosqichli tizimga asoslangan bo'lib, u yerda davlatlararo birdamlik (solidarlik) prinsipi bilan inson huquqlari tamoyillari o'rtasida ziddiyatli munosabatlar mavjud.

YeI qonunchiligi – xususan, Dublin reglamenti, Qaytarish direktivasi, Asosiy huquqlar xartiyasi – asosida migrantlarning xavfsizligi va huquqlari ta'minlanishi lozim bo'lsa-da, amaliyotda bu me'yorlarning bajarilishi ko'plab muammolar bilan to'qnashmoqda. Masalan, Yevropa Inson huquqlari sudi tomonidan ko'rilgan *Hirsi Jamaa v. Italy, M.S.S. v. Belgium and Greece* kabi ishlar YeI davlatlari tomonidan inson huquqlarining buzilishi holatlarini ochiq namoyon etgan. Ushbu pretsedentlar shuni ko'rsatmoqdaki, ayrim hollarda migratsion xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan choralar – kollektiv deportatsiya, push-back amaliyoti, qochqinlar uchun yetarli himoya bo'lmagan muassasalarda saqlash – inson huquqlari prinsiplariga mutlaqo zid kelmoqda.

Shuningdek, YeI darajasida faoliyat yuritayotgan agentliklar – Frontex, EUAA (sobiq EASO), Europol – tomonidan migratsiyani boshqarishda xavfsizlik yondashuvi ustun qo'yilmoqda. Bu esa migratsiya jarayonlarida ehtiyot choralari nomi ostida muhojirlarning asosiy huquqlariga putur yetkazilishiga olib kelmoqda. Misol uchun, Frontex agentligining Liviya sohillarida yuritgan operatsiyalari natijasida ko'plab migrantlarning dengizda halok bo'lishi inson huquqlari tashkilotlari tomonidan keskin tanqidga uchragan.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, YeI migratsiya siyosati ko'pincha xavfsizlik konsepsiyasiga asoslanib, inson qadr-qimmatini va himoyasini ikkilamchi masala sifatida ko'rib chiqmoqda. YeIning tashqi chegara siyosati doirasida qabul qilingan externalizatsiya choralari ko'pchiligi – uchinchi davlatlar bilan qaytarish bitimlari, tranzit zonalar, xalqaro suv hududlarida nazorat – xalqaro huquqning “qaytarib yubormaslik” (non-refoulement) prinsipiga zid holatlarni yuzaga keltirmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, a'zo davlatlar o'rtasida migratsiyaga doir yondashuvlar ham bir xillikka ega emas. Masalan, Germaniya va Shvetsiya boshpanani insonparvarlik mezonida yondashayotgan bo'lsa, Vengriya va Polsha qochqinlar qabul qilishdan qat'iyon bosh tortmoqda. Bunday nomuvofiqlik YeI qonunchiligida nazarda tutilgan umumiy tamoyillarni amalga oshirishda jiddiy to'siqlarga sabab bo'lmoqda.

Bundan tashqari, migratsiya siyosatini raqamlashtirish, axborot tizimlari (EES, ETIAS, Eurodac) orqali boshqarish tendensiyasi ham kuzatilmoqda. Bu tizimlar yordamida migrantlar shaxsiy ma'lumotlarini to'plash va ularni nazorat qilish samaradorligi ortayotgan bo'lsa-da, bu amaliyotlarning ham inson huquqlari – xususan, shaxsiy hayot daxlsizligi – bilan to'qnash kelish ehtimoli kuchli ekani aniqlangan.

Umuman olganda, YeI migratsiya siyosati shaklan inson huquqlari normalarini o'z ichiga olgan bo'lsa-da, mazmunan xavfsizlik va siyosiy barqarorlikni ustun qo'yish

orqali bu me'yorlarning amalda ta'minlanishini cheklamoqda. Bu esa inson huquqlari bilan muvofiqlikda jiddiy tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatadi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Yevropa Ittifoqi migratsiya siyosati inson huquqlarini to'liq ta'minlash borasida bir qator tizimli va amaliy muammolarga duch kelmoqda. Bir tomondan, YeI o'zining asosiy shartnomalarida inson huquqlari, erkinlik va qadr-qimmat tamoyillariga sodiqligini e'lon qilgan bo'lsa-da, amaliyotda xavfsizlik va siyosiy barqarorlik kabi ustuvor yo'nalishlar inson huquqlari prinsiplariga zid choralarni hayotga tadbiiq etishga olib kelmoqda.

YeI migratsiya siyosatining tashqi chegaralarda "push-back" amaliyoti, uchinchi davlatlar bilan qaytarish bo'yicha kelishuvlar (masalan, 2016-yildagi YeI-Turkiya bitimi) hamda tranzit zonalaridagi insoniy sharoitlarning yetarli emasligi bu siyosatning insonparvarlik ruhidan uzoqlashayotganini ko'rsatmoqda. Frontex kabi agentliklarning kengayib borayotgan vakolatlari ham ko'plab inson huquqlari tashkilotlari tomonidan tanqid qilinmoqda. Ayniqsa, ularning javobgarlik tizimi noaniqligi migratsiya siyosatini inson huquqlari nazoratidan chiqarib yuborish xavfini tug'dirmoqda.

Yevropa Inson huquqlari sudi tomonidan berilgan bir qator qarorlar – M.S.S. v. Belgium and Greece, Hirsi Jamaa v. Italy, N.D. and N.T. v. Spain – migratsiya siyosatining milliy darajada inson huquqlari tamoyillariga zid tarzda qo'llanayotganiga e'tibor qaratgan. Aynan shu holatlar YeI siyosatida xavfsizlik yondashuvi bilan inson huquqlari o'rtasida jiddiy nomutanosiblik borligini ko'rsatadi.

Muhokama natijalariga ko'ra, YeI migratsiya siyosatini inson huquqlari bilan uyg'unlashtirish uchun quyidagi yo'nalishlarda takomillashtirish zarur:

1. Huquqiy implementatsiya monitoringini kuchaytirish: a'zo davlatlarning YeI migratsiya qonunchiligini qo'llashdagi farqlarini aniqlovchi, yagona monitoring mexanizmini joriy etish zarur. Bu mexanizm inson huquqlari buzilishi holatlarini tezkor aniqlashga va oldini olishga xizmat qiladi.
2. Migratsiya siyosatida qaror qabul qilish mexanizmlarini demokratlashtirish: YeI doirasida ko'p hollarda siyosiy kelishmovchiliklar tufayli samarali qarorlar qabul qilinmayapti. Malakali ko'pchilik prinsipining kengaytirilishi qarorlar qabul qilishda inson huquqlari tamoyillarini inobatga olishni kuchaytiradi.
3. Institutsional koordinatsiyani kuchaytirish: Frontex, EUAA, Europol kabi agentliklar o'rtasida axborot almashinuvini kuchaytirish va inson huquqlari standartlariga muvofiqligini baholovchi mustaqil audit tizimini joriy etish lozim.
4. Uchinchi davlatlar bilan hamkorlikda nazorat mexanizmlarini ishlab chiqish: eksternalizatsiya siyosatining salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun uchinchi mamlakatlar bilan hamkorlikda inson huquqlari asosida yuritiladigan majburiy monitoring tizimi zarur.

5. Texnologik nazorat vositalarining huquqiy chegaralarini belgilash: sun'iy intellekt, biometrik ma'lumotlar va katta ma'lumotlar orqali migratsiyani boshqarish insonning shaxsiy hayotga bo'lgan huquqiga xavf tug'dirmasligi uchun alohida normativ baza ishlab chiqilishi lozim.

YeI migratsiya siyosatini inson huquqlari bilan uyg'unlashtirish uchun xavfsizlik va insonparvarlik o'rtasida muvozanatni izchil tarzda saqlovchi, aniq huquqiy, institutsional va nazorat mexanizmlarini joriy etish zarur. Aks holda, migratsion inqirozlar YeIning asosiy qadriyatlari – huquq ustuvorligi, erkinlik, inson sha'ni – bilan ziddiyatga kirib, butun tizimni zaiflashtirish xavfini keltirib chiqaradi.

XULOSALAR

Yevropa Ittifoqining migratsiya siyosati so'nggi yillarda xavfsizlik, chegara nazorati va muhojirlar oqimini boshqarish ehtiyojlari ta'sirida jadal rivojlanib bormoqda. Ushbu siyosat tashkiliy va huquqiy jihatdan murakkab tizimga ega bo'lib, uning asosiy maqsadi YeI hududida tartib va barqarorlikni ta'minlash hisoblanadi. Biroq bu maqsadlar amaliyotda inson huquqlari tamoyillari bilan to'qnash kelayotganini olib borilgan tadqiqot yaqqol ko'rsatdi.

Normativ-huquqiy tahlillar shuni tasdiqladiki, YeI migratsiya qonunchiligi formal jihatdan inson huquqlarini e'tirof etsa-da, siyosiy bosimlar, populistik diskurslar va milliy manfaatlar ushbu huquqlarni cheklab qo'yish hollari ko'p. Yevropa Inson huquqlari sudi tomonidan ko'rilgan pretsedent ishlar, shuningdek xalqaro tashkilotlar hisoboti migratsiya siyosatining ayrim amaliy jihatlari – kollektiv deportatsiya, push-back operatsiyalari, ommaviy ushlab turish – inson huquqlari bo'yicha xalqaro normalarga zid ekanini ko'rsatmoqda.

Tadqiqot doirasida YeI institutsional tuzilmasida mavjud bo'lgan vakolatlar to'qnashuvi, nazorat mexanizmlarining yetishmasligi, shuningdek, xavfsizlik siyosatining haddan tashqari kuchaytirilganligi YeIning inson huquqlarini ta'minlashdagi majburiyatlariga putur yetkazayotganini aniqlash mumkin bo'ldi. Ayniqsa, tashqi chegara siyosatining uchinchi davlatlar bilan tuzilgan bitimlar orqali tashqariga ko'chirilishi, migratsiyani "masofaviy" boshqarishga o'tish inson huquqlari nazoratidan chetda qolmoqda.

Shu sababli maqolada YeI migratsiya siyosatini inson huquqlari bilan muvofiqlashtirish uchun huquqiy monitoring, institutsional koordinatsiya, texnologik vositalarning shaffofligi va demokratik hisobdorlikni kuchaytirish zarurligi taklif etildi. Faqatgina xavfsizlikni emas, balki inson sha'ni va erkinligini ustuvor qo'yadigan yondashuvlarga YeIning migratsiya siyosatini xalqaro huquq me'yorlariga mos holga keltiradi. Aks holda, bu siyosat YeIning o'z demokratik qadriyatlariga zidlashib boraveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dublin III Regulation (EU) No 604/2013 of the European Parliament and of the Council of 26 June 2013.
2. Directive 2008/115/EC of the European Parliament and of the Council of 16 December 2008 on common standards and procedures in Member States for returning illegally staying third-country nationals.
3. European Convention on Human Rights (ECHR), Council of Europe, 1950.
4. The Charter of Fundamental Rights of the European Union, 2012/C 326/02.
6. Case of Hirsi Jamaa and Others v. Italy, European Court of Human Rights, Application No. 27765/09, 2012.
7. Case of M.S.S. v. Belgium and Greece, European Court of Human Rights, Application No. 30696/09, 2011.
8. Case of N.D. and N.T. v. Spain, European Court of Human Rights, Applications Nos. 8675/15 and 8697/15, 2020.
9. Frontex Annual Report 2022. European Border and Coast Guard Agency. Available at: <https://frontex.europa.eu>
10. UNHCR. (2023). Refugee Protection and Human Rights in Europe. Geneva: United Nations High Commissioner for Refugees.
11. Amnesty International. (2022). Pushbacks and Rights Violations at Europe's Borders. London.
12. European Union Agency for Asylum (EUAA). (2023). Annual Report on the Situation of Asylum in the EU. Valletta, Malta.
13. Human Rights Watch. (2023). Europe's Migration Walls: Human Rights Under Attack. New York.
14. Carrera, S., & Guild, E. (2017). Implementing the EU-Turkey Statement: Challenges and Criticism. Centre for European Policy Studies (CEPS).
15. Moreno-Lax, V. (2020). Accessing Asylum in Europe: Extraterritorial Border Controls and Refugee Rights. Oxford University Press.
16. Sharipov M. (2025). Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida migratsiyani tartibga solish bo'yicha davlat siyosati. Magistrlik dissertatsiyasi. Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti (TSUL).